

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**PO‘LATOVA SARVINOZ BOTIR QIZI**

**MIF VA ASOTIRLARGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING  
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI  
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Po'latova Sarvinoz Botir qizi**

“Mif va asotirlarga oid leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari materiallari misolida)”.....3

**Пулатова Сарвиноз Ботировна**

“Лингвокультурологическое особенности лексических единиц связанных с мифами и легендами (на примерах материалов в английском и узбекском языках)”.....27

**Pulatova Sarvinoz Botir kizi**

“Linguaculturological features of lexical units related to myths and legends (on the example of the materials in English and Uzbek)”.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**Поалар**

Приложение

Appendix.....59

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**PO‘LATOVA SARVINOZ BOTIR QIZI**

**MIF VA ASOTIRLARGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING  
LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI  
(INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MATERIALLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**TOSHKENT – 2023**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2. PhD/Fil.1835 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifasining (www.nuu.md.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Yusupova Shoir Botirovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Galiyeva Margarita Rafayelovna**  
filologiya fanlari doktori, dotsent

**Tuxtaxodjayeva Nargiza Akmalovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel: (99871) 246-08-62; faks: (99871) 227-10-59; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 11-xona)

Dissertatsiya matni bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400-uy. Tel: (99871) 246-08-62.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ -raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.G.Sheremetyeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, f.f.d., professor

**N.E.Abdullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

**I.A.Siddiqova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

## **KIRISH falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusini dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligini rivojlanishida har bir millatning dunyoqarashi, o‘ziga xos hayotiy tajribasi, tarixi, taomil, an’ana va urf-odatlarini o‘zida aks ettiruvchi milliy-madaniy xususiyatlar mujassamlashgan mif va asotirlardagi lisoniy birliklarning umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning chog‘ishtirma tadqiqi bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan biri – lingvomadaniyatshunoslikning o‘rganilmagan qirralari xususida izlanishlar olib borish, til va madaniyatni bir butunlik sifatida tadqiq etish, ularni chog‘ishtirma tahlil qilish hamda samarali qo‘llash yo‘llarini aniqlash tobora dolzarblashmoqda.

Dunyo tilshunosligida tilni tizim sifatida o‘rganishdan tashqari, unga antropotsentrik yondashuv talabi asosida madaniy belgilarni insoniyat ongida muhrlangan ko‘rinishining tilda aks etishi, olam manzarasi, uning bir qancha turlarini (lisoniy, milliy, etnik) nazariy va amaliy tomondan tadqiq etish kabi masalalar lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishining asosiy vazifalari sirasiga kiradi. Bu boradagi aksariyat tadqiqotlarning mazmuni, asosan, yangicha yondashuvlarga qaratilgan bo‘lib, faqatgina bir til doirasida amalga oshirililmoqda. Biroq qadimgi insoniyatning olam to‘g‘risidagi dastlabki tasavvurlari majmuasi hisoblanuvchi – mif va asotirlarning milliy-madaniy belgilari chog‘ishtirma aspektda yetarlicha o‘rganilmagan. Bu esa frazeologizmlar, metaforalar, ramzlar, folklor va diniy diskurslar, poetik va prozaik badiiy matnlar tarkibida aks etgan mif hamda asotirlarga oid leksik birliklarning nafaqat struktur-semantik jihatdan, balki lingvomadaniy xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektda o‘rganishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda o‘zbek tilshunosligi doirasida metaforik, ramziy, obrazli ma‘no anglatadigan va natijalari inson ongida umumlashma sifatida namoyon bo‘ladigan, mif va asotirlarga oid til birliklarining struktural, semantik va milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan izlanishlarni amalga oshirishda muhim natijalarga erishilmoqda. Bu borada, bir madaniyatga tegishli mif, asotir, afsona, an’ana, urf-odat va ramzlarni tadqiq etish bu ularni tilda maishiy va taomil muomalasi sifatida mustahkamlashga sabab bo‘ladi. Zero, “...ilm-fan va ta‘lim tizimlarini sifat jihatidan yuksaltirib borish bilan bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini ta‘minlash”<sup>1</sup> masalalarini O‘zbekiston Respublikasining Qonuni sifatida belgilanishi, o‘z navbatida, keng qamrovli va ko‘p ta‘rifli mif leksemasiga taalluqli bo‘lgan har qanday mifologik birlikni lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ulardagi lisoniy voqelanishning universal va o‘ziga xosliklarini ochib berish, chog‘ishtirma tilshunoslik sohasini fundamental va innovatsion tadqiqotlar bilan boyitish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil, 29-oktyabrdagi O‘RQ-576-sonli Qonuni //https://lex.uz/docs/-4571490

ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi va ushbu sohani yanada rivojlantirishga zamin bo'la oladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va davlatni ijtimoiy, demokratik huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tilshunos olimlar til va madaniyatni o'zida mujassamlashtiruvchi lingvomadaniyatshunoslik sohasining lisoniy tadqiqi masalalari bilan XX asrning 90-yillaridan shug'ullana boshladilar hamda til, madaniyat, inson shaxsiyati orqali tadbiq etila boshlagan ushbu yo'nalishning muammolari ilmiy izlanishlarda aks eta boshladi. Til va madaniyat munosabatlari haqidagi muhim ma'lumotlar dastavval V.fon Gumboldt<sup>2</sup>, keyinchalik E.Sepir, B.Uorf kabi taniqli olimlar<sup>3</sup>ning ilmiy asoslangan asarlarida o'z ifodasini topgan va ushbu nazariya yuzasidan izlanishlarning rivojlanishiga turtki bo'lgan. Hozirda lingvomadaniyatshunoslik sohasining keng ko'lamlil ilmiy tadqiqotlari orasida rus tilshunoslari N.F.Alefirenko, A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachev, V.V.Vorobyov, V.I.Karasik, O.A.Kornilov, Y.S.Kubryakova, V.A.Maslova, E.M.Vereshagin, V.N.Teliya, V.V.Krasnix, E.I.Kukushkina kabi olimlar<sup>4</sup>ning xizmatlari beqiyosdir.

Jahon tilshunosligida mifologiya ta'limoti, mif va mifologik birliklar leksikologik tadqiqotlar markazidan alohida o'rin egallaganligining guvohi bo'lishimiz mumkin, xususan, A.A.Anderson, J.Bovker, Ch.Dovning, V.Doniger, L.Honko, R.Pettazzoni, V.Indik, J.S.Kirk, S.Leonard, E.M.Meletinskiy,

---

<sup>2</sup> Гумбольдт В.Ф. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 80.

<sup>3</sup> Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993. – С. 112; Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1960. Вып. № 1. – С. 174.

<sup>4</sup> Алефиренко Н.Ф. Протовербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация // Филол. науки, 2002. – № 5. – С. 72-81; Вежбицкая А. Язык, культура и познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 64-72; Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М., 1997. – С. 32; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. 2-е изд. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.; Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. – М.: ЧеРо, 2003. – 349 с.; Кубрякова Е.С. В поисках сущности языка: Когнитивные исследования. Ин-т. языкознания РАН. – М.: Знак, 2012. – 208 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – 2-е изд., стереотип. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 208 с.; Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура: Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М.: Русский язык, 1990. – 246с.; Красных В.В. Лингвокультура как объект когнитивных исследований // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. 2013. – № 2. – С. 7-18; Кукушкина Е.И. Познание, язык, культура. – М.: МГУ, 1984. – 263 с.; Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 284 с.

D.P.Slattey<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy izlanishlarida mifologiya, mifning tarixi, ma'nosini, vazifalari, uni aniqlashdagi muammolar, qadimiy va boshqa madaniyatlardagi mif ko'rinishlari, mifologik ramzlar, klassik va super qahramonlar haqidagi qarashlar keng yoritilgan. Mazkur ishlarda, asosan, afsona tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik hamda folklor nuqtayi nazaridan yondashuvlar amalga oshirilgan xolos. Bu esa ularni yangicha yondashuv asosida tadqiq etish lozim ekanligidan dalolat beradi.

Mifologiya va miflar muammosi rus olimlari T.A.Apinyan, R.A.Aronov, S.M.Braysheer, O.A.Bella, L.N.Voyevodina, G.Kantor, K.Levi-Stros, A.F.Losev, Ye.V.Ivanova<sup>6</sup> va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan bo'lsa, ularni mifologema, mifoleksema, mifonim va mifologik leksika sifatida lisoniy hamda lingvomadaniy xususiyatlarini Yu.L.Shishova, S.A.Kosharnya, O.A.Cherepanova, Y.M.Shevchenko, I.L.Kucheshyeva, O.Yu.Nikolenko, O.A.Plaxova, I.G.Muxinalar<sup>7</sup> zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlarining yangicha yondashuvi asosida o'rganishga e'tibor qaratganlar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, qayd qilinganlar orasida katta ahamiyatga molik qiziqarli mushohadalar ilgari surilgan, biroq mif va asotirlarga oid leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini to'liq o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli emasligi kuzatildi.

---

<sup>5</sup> Anderson A.A. Mythos, Logos, and Telos: How to Regain the Love of Wisdom. – Rodopi, 2004. – 303 p.; Bowker J. Euhemerism. The Concise Oxford Dictionary of World Religions. – Oxford University Press, 2005. – 462 p.; Downing Ch. The Goddess: Mythological Images of the Feminine. – Continuum, 1996. – 138 p.; Doniger W. Myth and Method. – University of Virginia Press, 1996. – 147 p.; Honko L. The Problem of defining myth. – Dundes, 1984. – 138 p.; Pettazzoni R. The truth of myth. – Dundes, 1984. – 318 p.; Indick W. Classical Heroes in Modern Movies: Mythological Patterns of the Superhero // Journal of Media Psychology, № 9 (3): –2004. – P. 93-95; Kirk G.S. Myth: Its Meaning and Functions in Ancient and Other Cultures. – University of California Press. 1973. – 208 p.; Leonard S. The History of Mythology: Part I. – Youngstown State University, 2009. – 148 p.; Meletinsky E.M. The Poetics of Myth. – Taylor & Francis, 2014. – 204 p ; Slattey D.P. Bridge Work: Essays on Mythology, Literature and Psychology. – Carpinteria: Mandorla Books, 2015. – 235 p.

<sup>6</sup> Apinyan T.A. Мифология: теория и события. – Санкт-Петербург, 2005. – 281 с ; Аронов Р.А. Философские и историко-научные мифы об А.Эйнштейне // Вопросы философии. 2003. – № 4. – С. 77-86; Брайшер С.М. Мифология. – М.: Издательство «Олимп»: ООО «Издательство АСТ», 2002. – 192 с.; Бэлла О.А. Религия, магия, миф: современные философские исследования // Вопросы философии. 1999. – № 4. – С. 153-157; Воеводина Л.Н. Мифология и культура. – М.: Институт обще-гуманитарных исследований, 2002. – 384 с.; Кантор Г. Геродот: превращение мифа в науку // Вокруг света. 2007. – № 1. – С. 124-135; Лосев А.Ф. Философия. Мифология. Культура. – М.: Политиздат, 1991. 525 с; Ivanova Ye.V. “Religious fantasy” as element of contemporary Religious Mythology // Journal of Siberian Federal university // Humanities and Social sciences. – Russia, 2012. – № 5 (1). – С. 56-62.

<sup>7</sup> Шишова Ю.Л. Лингвистическая объективация мифологемы пути в современной англоязычной литературе. – Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2002. – 56 с.; Кошарная С.А. Лингвокультурологическая реконструкция мифологического комплекса «Человек – Природа» в русской языковой картине мира: Дис. ...д-ра филол. наук. – Белгород, 2003. – 452 с.; Черепанова О.А. Мифологическая лексика русского языка: Дис. ...доктора филологических наук. – Ленинград. 1983. – 434 с.; Шевченко Е.М., Кучмистый В.А., Цыбуля Н.С. Мифолексемы английского языка в диахроническом аспекте. // Вопросы журналистики, педагогики и языкознания, – Белгород, 2022. –Т. 41. № 1. – С. 166-174; Кучешева И.Л. Мифонимы для обозначения растительного и животного мира, космического пространства (на материале английского и немецкого языков) // Фундаментальные и прикладные исследования в современном мире, 2014. Т. 3. –№ 8. – С. 176-178; Николенко О.Ю., Файлерт Н.А. Названия мифических существ: история лексической группы по лексикографическим источникам // Вестник Омского государственного педагогического университета. Гуманитарные исследования, 2014. – № 3 (4). – С. 54-57. Плахова О.А. Мифологическая ономастика в английской народной сказке // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки, 2008. – № 4 (60). – С. 229-231. Мухина И.Г. Семантико-статистический подход к исследованию мифолексем английского языка на примере наименований мифических существ // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота, 2017. – № 8 (74): В 2-х ч. Ч. 2. – С. 134-139;

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida mifologizm, mif va uning turlari, mifologiya elementlariga doir muammolar, mifologemalarning lingvomadaniy tadqiqi masalalari bir qator dissertatsion va monografik ishlarning tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Ular orasida G'.Akramov, B.Sarimsoqov, T.Haydarov, T.Rahmonov, M.Jo'rayev, O.Madayev, N.Babadjanova, J.Eshonqul, D.S.Raxmonova, N.S.Matyazova, J.Yusupov, R.Saidova, B.Jumaniyozov, N.I.Jo'raqo'ziyev, S.M.Sariyev, D.R.Pardayeva, S.M.Nurullayeva, N.Q.Ro'ziyev, H.Ya.Ahmedov, M.O.Otajanova<sup>8</sup>larning ilmiy izlanishlarini keltirishimiz mumkin. Keyingi yillarda mif va asotirlarga oid leksik birliklarni qiyosiy va chog'ishtirma aspektda kognitiv hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan lingvistik tahlil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda, xususan, bu borada K.K.Sharipov, S.Sh.Sadriddinzoda, O'.A.Xudoynazarova, M.R.Galiyeva, G.P.Nazarova, J.A.Buranova<sup>9</sup>larning ilmiy ishlarini alohida qayd qilish zarur. Binobarin, olamning lisoniy manzarasida mifologik birliklarni o'rganishga qaratilgan bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan va xulosalar taqdim etilgan bo'lsada, chog'ishtirish orqali ularning o'ziga xos semantik maydonlari, lingvomadaniy xususiyatlarining o'xshash va farqli jihatlari ochib berilmagan hamda ularning konseptual tasnifi ishlab chiqilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "Turli tizimdagi tillarning lisoniy va tipologik xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

---

<sup>8</sup> Akramov G'. Animatek mifologiya // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1979. – 3-son. – B. 48-53; Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O'zbek folklorining epik janrlari. – T., 1981; Haydarov T. Go'ro'g'li va mifologiya sinkretizmi. – Toshkent, 1994. – 143 b.; Rahmonov T. Qadimgi miflar o'zbek folklori epik motivlarining o'zagi sifatida. Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1996. – 156 b.; Jo'rayev M. Hubbi obrazining mifologik asarlarga doirliqi // O'zbek tili va adabiyoti, – 2002. – B. 45-52; Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – T.: "Mumtoz so'z", 2010. – 212 b.; Babadjanova N. Mifologik dunyoqarashlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson ongiga ta'siri // Academic research in educational sciences. – Uzbekistan. – Vol. 2. Issue 6, – P. 1501-1502; Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. – Qarshi: Nasaf, 1999. – 246 b.; Raxmonova D.Sh., Matyazova N.S. Qadimiy afsonalar // Molodoy uchyoniy. – 2016. – B. 45-53; Yusupov J., Saidova R. O'zbek xalq afsonalarida Xizr obrazi // Ilm sarchashmalari, - Urganch, 2002 – № 3. – B. 78-82; Jumaniyozov B. O'zbek epik folklorlarida yalmog'iz obrazi. – Toshkent, 1996. – 128 b.; Jo'raqo'ziyev N.I. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda kosmogonik mifologiya. Filol. fan. d-ri ...diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 60 b.; Sariyev S.M. Go'ro'g'li dostonlari og'zaki va qo'lyozma nusxalarini qiyosiy o'rganish. Filol. fan. b. fals. d-ri. ... diss. avtoref. – Urganch, 2019. – 59 b.; Pardayeva D.R. Markaziy Osiyo yozuvchilarining mifologiya elementlaridan foydalanish mahorati (Ch.Aytmatov, Sh.Rashidov, A.Muxtor, T.Zulfiqorov, A.Alimdjanov, O.Bokeyev va R.Esenov ijodi misolida). Filol. fan. b. fals. d-ri. ...diss. avtoref – Qarshi, 2021. – 58 b.; Nurullayeva S.M. Zamonaviy o'zbek sheriyyatida mifologik obrazlar sivilizatsiyasi va metaforizatsiyasi. Filol. fan. b. fals. d-ri.... diss. avtoref. – Buxoro, 2022. – 60 b.; Otajanova M.O. Hozirgi o'zbek nasrida mifologizm. Filol. fan. d-ri. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 60 b.

<sup>9</sup>Шарипов К.К. Структурные и функционально-семантические особенности мифологической лексики в языках различных систем. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Душанбе, 2006. 24 с; Sadriddinzoda S.Sh. Семантические особенности и прагмакультурологические функции демонологической лексики (на материале узбекской, русской и английской литературы). Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 59 b.; Xudoynazarova O'.A. Ingliz va o'zbek tillarida mifonim komponentli frazeologizmlarning lingvokulturologik tadqiqi. Filol. fan. b. fals. d-ri. ...diss. avtoref. – Termiz, 2022. – 58 b.; Galiyeva M.R. Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi. Filol. fan. d-ri ...diss. – Toshkent, 2019. – 251 b.; Nazarova G.P. Ingliz va o'zbek adabiyotida mifologik obrazlar tizimi, genezasi, badiiy vazifalari. Filol. fan. b. fals. d-ri ....diss. avtoref. – Buxoro, 2022. – 60 b.; Buranova J.A. Zamonaviy rusiyazabon va o'zbek nasrida badiiy mifologizm. Filol. fan. b. fals. d-ri.... diss. avtoref. – Qarshi, 2022. – 60 b.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek tillaridagi mif va asotirlarga xos leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish hamda chog‘ishtirilayotgan tillarda o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ingliz va o‘zbek tillarida mifologiya, lingvomadaniyatshunoslik, madaniyatlararo munosabat masalalarining chambarchas bog‘liqligi asosida mifologiyani lisoniy va lingvomadaniy hodisa ekanligini aniqlash;

turli tizimli tillardagi mif va asotirlarga doir leksik birliklarning konseptuallashtirish tizimi asosida ularni tahlil qilish hamda konseptual tasnifini ishlab chiqish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi mif va asotirlarga oid birliklarni chog‘ishtirish orqali ularning o‘ziga xos semantik maydonlarini taqdim etish hamda ikki tildagi mifologik leksemalarni struktural-semantik jihatlarini ochib berish va mavzuviy guruhlarini shakllantirish;

mif va asotirlarga xos leksik birliklarni ingliz va o‘zbek tillari lingvomadaniyatiga ko‘ra tahlil qilish hamda ushbu xususiyatlarning o‘xshash va farqli jihatlarini ochib berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi mif va asotirlarga xos leksik birliklar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o‘zbek tillaridagi mif va asotirlarda qo‘llaniluvchi leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada chog‘ishtirma, komponent tahlil, lingvomadaniy, kross-madaniy kabi tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ingliz va o‘zbek tillariga xos mif va asotirlardagi leksemalarning konseptuallashtirish tizimining kuzatilishi natijasida mifologiyaga yangicha yondashuv – lisoniy va lingvomadaniy hodisa deb qaralishi asoslangan;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi taomil va urflar, udum va rivoyatlar, mifologema va arxetiplar bo‘yicha qo‘llaniladigan miflashtirilgan leksik birliklar – mif va asotirlarda olam, samoviy jismlar, odamning yaratilishi, muayyan e‘tiqodiy ishonchlarga doir, ajdodlar haqidagi, vaqt, makon bilan bog‘liq ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik hamda vatan, jasorat, baxt konseptlarining izomorfik va allomorfik xususiyatlari dalillangan;

mif va asotirlarga xos leksik birliklarning ma‘no jihatidan ingliz tilshunosligida qirollar (kings), mashhur shaxslar (famous people) hamda hayvon va mavjudotlar (animals and creatures), o‘zbek tilshunosligida esa antropogenik, suv va tabiat hodisalari haqidagi hamda dualistik kabi semantik maydonlarga birlashishi isbotlangan;

ingliz va o‘zbek tillarining mif va asotirlariga oid qahramonlar, dualistik miflar, hayvon va mavjudotlarning ijobiy yoki salbiy xarakteri, tashqi ko‘rinishi, amallarini ifodalab kelishi jihatidan o‘xshash hamda qo‘llaniladigan mifologik leksik birliklarning nomigina ushbu xalq va millatning tilida aks ettishi kabi farqli jihatlarini namoyon bo‘lishi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijasida shakllangan aniq xulosalar lingvomadaniyatshunoslik jabhasini yangi nazariy bilim va ilmiy yondashuvlar bilan boyitishi barobarida, qiyosiy tipologiya, matn lingvistikasi, kommunikativ grammatika fanlari bo'yicha yangi darslik, o'quv qo'llanmalar yaratish, ikki yoki uch tilli o'quv lug'atlari tuzish, ma'ruza matnlarini yangilashga xizmat qilishi asoslangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi mif va asotirlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish va ularda qo'llaniluvchi leksik birliklarni aniqlash orqali qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik sohalariga oid tavsiiy va takliflar ishlab chiqilgan;

mifologik leksemalar ma'no jihatidan saralanib, bir konseptni anglatuvchi leksik birliklar, simvolik ma'noni aks ettiruvchi leksik birliklar, ambivalentlikni, ya'ni qarama-qarshi ma'nolarni aks ettiruvchi leksik birliklar guruhlariga ajratilgan holda tasniflangan;

chog'ishtirilayotgan tillarda mif va asotirlarga oid leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularning semantik maydonlarga ajratish orqali konseptlashuvini o'ziga xosligi misollar bilan dalillandi hamda qirollar, mashhur shaxslar, hayvonlar va mavjudotlar, antropogenik hamda dualistik kabi guruhlariga ajratish mezonlari tavsiflangan;

filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi hamda lingvistika mutaxassisliklari bo'yicha ta'lim oluvchi talaba va magistrantlar, shuningdek, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik sohalarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan, mifologik birliklardan iborat mif, afsona va asotirlarning batafsil izohlarini o'z ichiga olgan ikki tilli "English-Uzbek dictionary of lexical units in mythology" (An A-Z of themes, legends and heroes) / Mifologiyaga oid leksik birliklarning inglizcha-o'zbekcha izohli lug'ati (Guvohnoma №005398) yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv asosida mavzu yuzasidan ilmiy asoslangan xulosalarning qat'iyiligi, keltirilgan ma'lumotlar ishonchli ilmiy va badiiy manbalardan olingani, amalga oshirilgan vazifalarga mos keluvchi chog'ishtirma, komponent tahlil, lingvomadaniy, kross-madaniy kabi zamonaviy tilshunoslik tahlil usullaridan foydalanilgani, muammoning aniq va asosli shakllantirilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, shuningdek, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o'zbek tillariga xos mif va asotirlarda qo'llanuvchi mifologik leksemalarning lingvomadaniy xususiyatlari antropotsentrik paradigma nazariyasi asosida, chog'ishtirma aspekt nuqtai nazaridan tadqiq etilganligi hamda ushbu sohada ularning izomorflik va allomorflik jihatlari haqidagi ilmiy fikrlar nazariy jihatdan boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy ishda taqdim qilingan materiallar va erishilgan xulosalardan filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishlari hamda lingvistika mutaxassisliklari mavjud oliy ta'lim muassasalarida ingliz va o'zbek tillaridan nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni olib borish uchun materillarni boyitish, shuningdek, lingvomadaniyatshunoslik,

leksikologiya, mifologiya, umumiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlararo muloqot, mamlakatshunoslik, qiyosiy tipologiya, folklorshunoslik kabi kurslarni o‘qitish hamda ushbu fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlar, ma’ruza matnlarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek tillari mif hamda asotirlarda qo‘llaniladigan leksik birliklarning shakllanishi, rivojlanishi, semantik va lingvomadaniy xususiyatlarining chog‘ishtirma tadqiqini amalga oshirish bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o‘zbek tillariga xos mif va asotirlardagi leksemalarning konseptuallashuv tizimining kuzatilishi natijasida mifologiyaga yangicha yondashuv – lisoniy va lingvomadaniy hodisa deb qaralishiga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DM tarkibidagi “Foreign languages” telekanali orqali efirga uzatilgan “Good morning, Uzbekistan!” ko‘rsatuvining tilni chuqur o‘rganishga qaratilgan darslarida foydalanilgan (“O‘zbekiston” teleradiokanali davlat muassasaning 2022-yil 3-oktabrdagi 05-05-1629-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek tillaridagi mif va asotirlarga xos bo‘lgan leksemalarning semantik maydoni, lingvomadaniy xususiyatlari hamda ularning o‘ziga xos o‘xshashlik va farqli jihatlarini chog‘ishtirma tahlil orqali tanishtirish tinglovchilar bilimlarini yanada boyitishga xizmat qilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi taomil va urflar, udum va rivoyatlar, mifologema va arxetiplar bo‘yicha qo‘llaniladigan miflashtirilgan leksik birliklar – mif va asotirlarda olam, samoviy jismlar, odamning yaratilishi, muayyan e’tiqodiy ishonchlarga doir, ajdodlar haqidagi, vaqt, makon bilan bog‘liq ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go‘zallik va xunuklik hamda vatan, jasorat, baxt kabi konseptlarining izomorfik va allomorfik xususiyatlariga oid xulosalaridan O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan “Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturining Project № 598340-EPP-1-2018-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP University Cooperation Framework for Knowledge Transfer in Central Asia and China (UNICAC)” grant loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 10-apreldagi 04/11-1938-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mifologiyaning lisoniy hamda lingvomadaniy xususiyatlari chog‘ishtirilayotgan tillarda tahlil qilinib, ularning o‘ziga xos va farqli jihatlarini ochib berilganligi, shuningdek, ingliz va o‘zbek tilshunosligida mif va asotirlarni konseptlarga ajratilgan holda o‘rganilganligiga oid o‘quv materiallari asosida magistratura talabalari uchun tashkil etilgan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning ilmiylikini oshirishga erishilgan;

mif va asotirlarga xos leksik birliklarining ma’no jihatidan ingliz tilshunosligida qirollar (kings), mashhur shaxslar (famous people) hamda hayvon va mavjudotlar (animals and creatures), o‘zbek tilshunosligida esa antropogenik, suv va tabiat hodisalari, dualistik kabi semantik maydonlarga birlashishiga oid xulosalardan O‘zbekiston Milliy Universitetida bajarilgan A-OT-2021-419-sonli “Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirish kursining elektron

platformasini yaratish (Pre-school PDP)” mavzusidagi innovatsion loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy universitetining 2023-yil 4-apreldagi 04/11-1780-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur platformani aniq va izohlangan ma’lumotlar hamda ularga mos rasm va tarqatma materiallarning mazmunini boyitilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ish natijalari 6 ta xalqaro va Respublika miqyosidagi 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusining asosiy mazmuni jami 23 ta ilmiy ishda o‘z aksini topgan, shulardan, 1 ta lug‘at, 5 ta ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, asosiy matn 133 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, qo‘llanilgan metodlar, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy va amaliy natijalari bayon qilingan, erishilgan natijalarning yangiligi ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy etish va foydalanish imkoniyatlari, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mifologiya – lisoniy va lingvomadaniy hodisa sifatida**” deb nomlangan I bobi til va madaniyatning chambarchas bog‘liqligi, ularni ajratish imkonsiz ekanligi, til va madaniyat o‘zaro mutanosiblikda rivojlanib borishi to‘g‘risidagi fikr-mulohazalar yoritilgan. Ayniqsa, turli xil madaniyatlarga doir fikrlarning kengayishi lingvomadaniyatshunoslik sohasida nazariy va amaliy jihatdan izlanishlar olib borish imkoniyatining ortishi, ma’lum bir madaniyatni o‘rganishda til asosiy ahamiyat kasb etishi haqidagi umumiy ma’lumotlar yoritilgan. Nazariy qarashlar tadqiqi tahlilga tortilgan va ular yuzasidan sharhlar keltirilib, turli nazariy yondashuvlarga munosabat bildirilgan.

Tilshunoslikning o‘rganish obykti til – ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etilib, nutq jihatidan insonlarni bir-biri bilan bog‘lovchi aloqa vositasi hisoblanishi barchaga ma’lum ekanligini ta’kidlash joizdir. Shu bilan birgalikda, til – millatning ma’naviy boyligi va madaniyatni namoyish etib beruvchi timsol sifatida ham e’tirof etiladi<sup>10</sup>. Madaniyat esa har bir xalqqa oid an’ana, urf-odat, qadriyatlar, taomlanish madaniyati, kiyinish etikasi va hayot tarzini namoyish etuvchi ijtimoiy hodisa deb talqin etiladi. Shu o‘rinda, til va madaniyatning uzviy bog‘lovchi

---

<sup>10</sup> Ничкало Н.Г., Филонова Г.Н., Суходольской-Кулешовой О.В. Современное образование как открытая система: Коллективная монография. – М.: Институт научной и педагогической информации РАО, «ЮРКОМПАНИ», 2012. – 576 с.

belgilari sifatida uning har bir xalqqa xosligi va har millatda turlicha ko‘rinishda ekanligida namoyon bo‘ladi.

Tilshunoslikda til va madaniyatning o‘zaro lingvistik interaktivligi, ya’ni aloqadorligi xususida olimlar o‘rtasida turlicha yondashuvlar talqin qilinadi. Til va madaniyat munosabatlari haqidagi dastlabki nazariyalar V.fon Gumboldt tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, uning ta’limotiga ko‘ra, bu masalada quyidagi g‘oyalar bayyon etiladi: “1) moddiy va ma’naviy madaniyat tilda mujassamlashadi; 2) har qanday madaniyat milliydir, uning milliy xarakteri tilda dunyoni o‘ziga xos ko‘rish vositasi bilan ifodalanadi; 3) tilga har bir xalq uchun o‘ziga xos bo‘lgan ichki shakl xosdir; 4) tilning ichki shakli – “xalq ruhi” va uning madaniyatining ifodasidir; 5) til inson va uni o‘rab olgan dunyo orasidagi halqa hisoblanadi”<sup>11</sup>. Keyinchalik ushbu ta’limot A.Vejbitskaya, V.V.Vorobyev, V.A.Maslova va V.N.Teliya kabi rus tilshunos olimlari<sup>12</sup> tomonidan rivojlantirildi. Shu o‘rinda, tilshunos olim Y.F.Tarasovning yondashuviga ham e’tibor qaratish zarur, uning ta’kidlashicha, “til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi muammolar faqat matndagina inson va madaniyatni anglatuvchi masala sifatida namoyon bo‘ladi”<sup>13</sup>. Zotan, bizning fikrimizcha, til va madaniyat masalasi faqatgina matnda emas, balki barcha jabhalarda ham bir-biriga chambarchas bog‘langandir.

Mutaxassislar til va madaniyatning bog‘liqlik jihatlari bir nuqtayi nazar bilan cheklanib qolmaganligini uqtiradilar. Bu borada, AQSH va xorij tilshunos olimlari tomonidan ham ahamiyatga molik mushohadalar e’tirof etiladi. Masalan, amerikalik tilshunos E.Sepir “til madaniyatdan oldin paydo bo‘lgan, chunki u madaniyatga nisbatan ma’no ifodalovchi vosita sifatida sanalishi barobarida, ijtimoiy va madaniy rivojlanish mahsuli bo‘lib, madaniyatning ijtimoiylashgan qismidir”<sup>14</sup> deya hisoblaydi. Ushbu izohlarga qo‘shimcha ravishda H.A.Sultan “til yo‘qolganda, madaniyatning bir qismi yo‘q bo‘lishi mumkin, shuningdek, madaniyat tilda sezilarli darajada muhim o‘rin egallaydi”<sup>15</sup> degan fikrni olg‘a sursa, R.M.Braun esa “til – madaniyatning yo‘l xaritasi”<sup>16</sup> deya ta’kidlaydi. Biz, yuqoridagi fikr-mulohazalarni umumlashmasidan kelib chiqqan holda, til va madaniyat o‘rtasidagi aloqa shunchaki munosabat bo‘libgina qolmasdan, balki til madaniyat bilan birga rivojlangan holda uni ifoda qiladi hamda madaniyatning aniq mazmun-mohiyati til orqali namoyon bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Muayyan bir yoki bir necha madaniyatning ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklorlarda aks

---

<sup>11</sup> Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 80.

<sup>12</sup> Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1996. – 416 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология (теория и методы). – М.: Изд-во Росс. ун-та Дружбы народов, 1997. – 331 с.; Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – М.: Наследие, 1997. – 208 с.; Телия В.Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.

<sup>13</sup> Тарасов Е.Ф. Введение // Язык и сознание: парадоксальная рациональность. – М., 1993. – С. 6-15.

<sup>14</sup> Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993. – С. 24.

<sup>15</sup> Sultan H. A. The Relationship between Language, Identity and Cultural differences: A Critical Review // Research on Humanities and Social Sciences.2008 Vol.8. No.4. –P. 98-101. <https://core.ac.uk>.

<sup>16</sup> Rita Mae Brown. A view on language as the roadmap of a culture // IJRAR, 2021 April. Volume 8. Issue 8 // ([uz.ferret.com](http://uz.ferret.com)) [www.ijrar.org](http://www.ijrar.org)

etadigan til birliklari lingvomadaniyatshunoslikning predmetini tashkil etganligi bois, mifologiya ham o'zida aniq bir belgilangan madaniyatning bir ko'rinishi sifatida mif va asotirlarini o'zida mujassamlashtirganligini alohida ta'kidlash joizdir. Mifologiyaga oid tadqiqotlar tahlilga tortilganda, ushbu fan adabiyotshunoslik, tilshunoslik, folklorshunoslik, madaniyatshunoslik, hattoki, tarix fanlari bilan chambarchas bog'langanligi kuzatildi. Ma'lumki, mifologiya sohasi miflarni o'rganadi va u orqali o'zida shu xalqning madaniyatini aks ettiradi.

Mif muammosi yuzasidan xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, xususan, M.Eliade, G.S.Kirk, A.W.Reed, B.Roland, R.Segal, H.Hamiltonlar<sup>17</sup>ning ilmiy izlanislari buning isboti sifatida xizmat qiladi. Shu ma'noda ta'kidlash joizki, ushbu ishlarning aksariyatida mif masalasi keng ko'lamda yoritilgan bo'lsa-da, ularga lisoniy hamda lingvomadaniy nuqtayi nazardan yondashuvlar amalga oshirilmagan. Shuningdek, o'zbek tilida mifonimlarning qo'llanilishiga oid masalalar ham anchagina mufassal o'rganilgan<sup>18</sup>. N.X.Babadjanovanning ilmiy maqolasida mif, uning turlari, mifologiya va uning obrazlarini ilmiy jihatdan asoslangan, shuningdek, mifologik tasavvur va dunyoqarashlarning olam hamda inson ongiga ta'siri haqidagi falsafiy qarashlar ifoda qilingan<sup>19</sup>. B.Jumaniyozuvning dissertatsiyasida Uchbek epik folklorida yalmog'iz obrazi o'rganilgan<sup>20</sup>. M.Otajonova mifologiyani hozirgi o'zbek nasri badiiy kontekstidagi o'ziga xos transformatsiyasi va semantik vazifalarini yoritish orqali mifologizmlarning poetik tabiati hamda badiiy tafakkur tadrijida tutgan o'rnini ochib berishga harakat qiladi<sup>21</sup>. Mazkur ishlarda anchayin e'tiborga molik nazariy mushohadalar keltirilgan, ammo ularning aksariyati bir til uchun xos bo'lib, mif va asotirlarga oid leksik birliklar chog'ishtirma aspektida chuqur o'rganilmagan. Shunga qaramasdan, har ikki tilga oid ilmiy izlanishlarda bir qator ahamiyatli qarashlar mavjud ekanligini ta'kidlash joizdir.

Miflarning til birliklari orqali tasvirlanishi, madaniyat haqidagi g'oyalarni o'z ichiga olishi va til orqali uni o'z tarkibida ifoda qilishi bilan birgalikda, madaniy qadriyatlarni saqlash, avloddan avlodga yetkazish vazifalarini ham bajarishi alohida ta'kidlanadi. Shu bois, mifologiyani lisoniy hodisa sifatida talqin qilish mumkin. Lingvistik muammolar tahliliga bag'ishlangan ko'p sonli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilganligiga qaramay, mifologiya va lingvomadaniyatshunoslik, ularning lisoniy, madaniy va amaliy jihatlari tadqiqiga oid ko'plab muammolar hanuz chuqur tahlil va aniqlikni talab qilmoqda.

---

<sup>17</sup> Eliade M. *Myth and Reality*. – Waveland Press, 1998. – 162 p.; Kirk G.S. *Myth: Its Meaning and Functions in Ancient and Other Cultures*. – Berkeley: Cambridge UP, 1973; Reed A.W. *Aboriginal Myths, Legends and Fables*. – Chatswood: Reed, 1982; Roland B. *Mythologies*. – New York: Hill and Wang, 1972. Segal R. *Myth: a very short introduction*. – Oxford: Oxford UP, 2004; Hamilton H. *Mythology*. – Boston: Back Bay Books, 1998.// <https://www.amazon.com/dp/0316341142?tag=encyclopediap20&camp=14573&creative~327641&linkCode=as1&creative>

<sup>18</sup> Narbayeva G. O'zbek tilida mifonimlarning qo'llanishi // *Евразийский журнал академических исследований*, 2022. - № 2 (12). – С. 938-941.// <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/6466>

<sup>19</sup> Babadjanova N.X. Mifologik dunyoqarashlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning inson ongiga ta'siri // *Academic research in Educational sciences // Scientific Journal*6, 2021 Volume 2. Issue 6. 2021. – P. 1501-1505.

<sup>20</sup> Jumaniyozuv B. Uchbek epik folklorida yalmog'iz obrazi. *Filol. fanlari nomzod. ... diss. avtoref.* – Toshkent, 1996.

<sup>21</sup> Otajonova M.O. Hozirgi o'zbek nasrida mifologizm. *Filol. fanlari doktori ...diss. avtoref.* – Toshkent, 2022.-74 b.

Ishning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillari mif va asotirlaridagi leksemalarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash muammolari”** deb nomlanib, har bir qism mif va asotirlarga xos leksik birliklarni tadqiq etish masalasiga qaratilgan. Hozirgi zamon tilshunosligida olib borilayotgan keng ko‘lamli tadqiqotlar natijasida, ushbu sohada rivojlanish bilan bir qatorda, o‘ziga xos muammolar ham yuzaga kelmoqda. Tadqiqot ishimizning o‘rganish obyekti bo‘lgan mifologiyaga xos miflar ham ushbu jarayondan mustasno emas. Shu o‘rinda, mif va asotirlar leksikasining turli jihatdan o‘rganish borasida yuzaga kelayotgan muammoli komplekslar xususida to‘xtalib o‘tishdan avval, mifga konsept sifatida yuzlanish ilmiy izlanish mohiyatini kengroq ochib berishga xizmat qiladi. “Mif (yun. mythos – rivoyat, asotir) – qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma‘budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e‘tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. Mif odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimiy tasavvurlar silsilasidir”<sup>22</sup>. Ingliz manbalarida esa mif quyidagicha ta‘riflangan: “Myth – 1) a traditional story, especially one concerning the early history of a people or explaining a natural or social phenomenon, and typically involving supernatural beings or events; 2) a widely held but false belief or idea; 3) a misrepresentation of the truth; 4) a fictitious or imaginary person or thing; 5) an exaggerated or idealized conception of a person or thing”<sup>23</sup>.

Yunon tilidan kirib kelgan mif tushunchasi afsona, rivoyat, asotir va mifologemalar bilan bir sinonimik qatorni tashkil etadi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, ma‘lum ma‘noda ushbu tushunchalar orasida tafovvutlar namoyon bo‘ladi. Masalan, mif va afsona xalq og‘zaki ijodi janri, xayolot, uydirma va to‘qimadan iborat bo‘lishi bilan birgalikda, so‘zlovchi hamda tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etilishi – ularning umumiy birlashtiruvchi belgisi bo‘lishiga qaramay, afsona mifdan farqli ravishda hajmi kichik, bayon qilinishi sodda, badiiy tasvir vositalaridan deyarli xoli bo‘ladi, tuzilishiga ko‘ra ertak, naql, rivoyatlarga o‘xshab ketadi. Afsonalar yozma adabiyotning, ayniqsa, badiiy, falsafiy, dinga, tarixga, axloqqa oid asarlarning mavzusi, muayyan qismi tarzida g‘oyaviy-estetik vazifani bajaradi.

Tilshunos olimlar mif va asotirlarni ifoda etuvchi leksemalarni turlicha talqin qiladilar. Jumladan, O.A.Cherepanova mifologik tushunchalarni ifoda etuvchi birliklarni mifologema atamasi orqali bayon etadi<sup>24</sup>. V.A.Maslova esa “mifologema afsona va asotirlar uchun muhim bo‘lgan belgi yoki holatdir” deb ta‘riflaydi<sup>25</sup>. Bizning fikrimizcha, mifologiyaga oid leksik birliklar yuqoridagi ta‘riflar asosida aniq ifoda etish qiyin bo‘lgan, tilshunoslar va mifologlar tomonidan ba‘zan bir xil yoki turli xil tushunchalarni anglatuvchi birliklardir.


<sup>22</sup> O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000. – B. 647.

<sup>23</sup> Oxford Language online dictionary. Second edition, 2019.

<sup>24</sup> Черепанова О.А. Мифологическая лексика русского севера. – Л., 1983.

<sup>25</sup> Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. – М., 1997.

Ilmiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, mif termini bilan bir sinonimik qatorda mifema, mifologizm, mifologik xarakter kabi birliklar ham qo‘llaniladi.



### 2.1-rasm. Mif terminining alternativlari.

A.P.Babushkinning ta’biri bilan aytganda, “mifema inson tasavvurining mahsulotidir”<sup>26</sup>. K.Levi-Stross esa miflarga “atrofdagi mavjud haqiqatga ega bo‘lmagan va afsonaviy mavjudotlarni ifodalovchi birlik”<sup>27</sup> deya qaraydi. O.I.Bikova va O.N.Rakitinalar “mif bilan bir xil muhim xususiyatlarga ega bo‘lgan leksik birlik sifatida ifodalanadigan nom”<sup>28</sup> ekanligini e’tirof etishadi.

Mifologizm esa A.A.Yunakovskaya fikriga ko‘ra, “turli mifologik belgilarni ifodalovchi birliklar bo‘lib, qadimgi mifologik ongni aks ettiradigan va zamonaviy ona tili nutqlarida ishlatiladigan mifologik harakatlarni belgilaydigan iboralar”<sup>29</sup> deb e’tirof etiladi. Mifologik xarakter “ma’lum nom bilan bog‘langan xususiyatlar va funksiyalar to‘plami”<sup>30</sup>dir.

Guvohi bo‘lganimizdek, mif konsepti, asosan, insonning tasavvurlari orqali vujudga kelgan ma’lum bir tushunchalarga nisbatan qo‘llaniladi. Har bir tilshunos olim o‘z nuqtai nazari va bilim doirasidan kelib chiqqan holda, bir leksemani turlicha talqin etganligi bois, mifologik leksemalarning ta’rif va atama muammolari yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan. Demak, yuqoridagi bayonlarga ko‘ra, mif leksik birligi asosi mifdan iborat bo‘lgan, turlicha so‘zlar orqali taqdim etilgan va olimlar tomonidan farqli ta’riflar ila keltirilganligi kuzatildi. Shu bois, ham mif konsepti va afsona muammosini o‘rganish uchun eng maqbul atama, qolaversa, uning to‘liq ta’rifini taqdim etish tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotda keltirilganidek, mifologema deganda, biz belgi nomlarini, maxsus afsonaviy mazmundagi so‘zlarni tushunamiz. So‘zning tarkibiy tuzilishining belgilaridan biri – mifologemalar etnomadaniy komponent hisoblanadi”<sup>31</sup>. Yuqorida nomlari keltirilgan tilshunoslar muammoni bartaraf etish maqsadida mifologema leksemasini aniq termin sifatida taqdim etishgan. Biroq, bizningcha, ushbu masalani hal etish maqsadida, mif va asotirlarni ifoda etuvchi birliklarni

<sup>26</sup> Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж, 1996.

<sup>27</sup> Леви-Стросс К. Структура мифов и Леви-Стросс К. Структурная антропология. – М., 1985. – С. 183-207.

<sup>28</sup> Быкова О.И., Ракитина О.Н. Мифологема как культурный концепт // II Житниковские чтения. – Челябинск, 1999. – С. 133-140.

<sup>29</sup> Юнаковская А.А. Типы мифологических единиц в современном городском просторечии // Филологический ежегодник. – Омск, 1998. Вып. 1. – С. 44-49.

<sup>30</sup> Левкиевская Е.Е. Мифологические персонажи в славянской традиции. I. Восточнославянский домовой // Славянский и балканский фольклор. – М., 2000. – С. 96-161.


<sup>31</sup> Быкова О.И., Ракитина О.Н. Мифологема как культурный концепт // II Житниковские чтения. – Челябинск, 1999. – С. 133-140.

mualliflik yondashuvi asosida *mifoleksema*<sup>32</sup> deya nomlashni lozim topdik, chunki mifoleksema mifologiyaga doir barcha leksik birliklarni – frazeologik birlik yoki birikma bo‘lishidan qat’i nazar o‘zida mujassam eta oladi.

Mifologiyada miflashtirilgan til birliklarini o‘rganish, asosan, folklorshunoslik, etnografiya, etnolingvistika, dialektologiya va leksikologiya orqali mif va asotirlardagi turli xil ijobiy va salbiy qahramonlarni tahlil qilishda ko‘rinadi. Demak, mifoleksemalarning lingvomadaniy tahlili – shu tilning mentaliteti, odamlar ongida shakllangan turli xil g‘oyalar (tarixdan to shu kunga qadar) va ularning xususiyatlarini tasvirlab beradi.

Mifoleksemalarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida ularni quyidagi sxemalarga ajratgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: 1) tahlil qilinayotgan mifoleksemaning ichki ma’nosini aniqlash; 2) mifoleksemalar tarkibini aniqlashda ular qaysi mifologik konseptga aloqadorligi va qanday ma’nolarda foydalanish mumkinligini o‘rganish; 3) mifoleksemalarning o‘rganilayotgan mifologik so‘zlar paradigmasidagi o‘rnini aniqlash; 4) tahlilga tortilgan so‘zlarning sintagmatik bog‘lashishlarini kuzatish hamda til orqali ularning vazifalarini ochib berish; 5) xalqlar madaniyatida berilgan so‘zlarning qanday ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatish hisoblanadi. Berilgan sxema asosida mifoleksemalarning asl ma’nolari tahlilini amalga oshirish tilshunoslikda ularning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tillaridan biri sifatida talqin etiluvchi ingliz tilida bir qator lingvistik tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, mif va asotirlar ham shular jumlasidandir. “Ingliz mifologiyasi Angliya tarixi mobaynida paydo bo‘lgan miflar jamlanmasi sanalib, asosan, Anglo-sakson, Xristian va Kelt mifologiyalari hamda ingliz an’analariga xos afsonalar asosida yuzaga kelgan”<sup>33</sup>. IZlanishlar jarayonida ingliz xalqining asosiy mifologik qahramonlari sifatida quyidagilar e’tirof etilishi kuzatildi:



## 2.2- rasm. Ingliz tilidagi asosiy mif va afsonalar majmuasi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, ingliz tilidan farqli ravishda o‘zbek folklorida quyidagilar asosiy mifologik obrazlar sifatida talqin etilishi aniqlandi: 1) “Avesto” asotirlariga aloqador – *Kayumars, Anaxita, Axriman, dev, pari, ajdar*; 2) Suv bilan bog‘liq – *Hubbi, Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin*; 3) Shamol “piri” sifatida

<sup>32</sup> Mazkur termin bizning mualliflik yondashuvimiz asosida taklif etilgan bo‘lib, o‘zida mifologiyaga xos ma’nolarni mujassam etuvchi mif va leksemani uyg‘unlashtiruvchi til birligini mifoleksema deb atash maqsadga muvofiqdir.

<sup>33</sup> [https:// org/wiki/English\\_mythology#Legacy\\_of\\_English\\_mythology\\_in\\_English\\_literature](https://org/wiki/English_mythology#Legacy_of_English_mythology_in_English_literature)

tasavvur qilingan – *Haydar, Yalli momo, Yalang‘och ota, Choymomo*; 4) Xalq taqvimiga aloqador – *Ayamajuz, Axmad Dahman*; 4) Momaqaldiraq va chaqmoq “egasi” – *Guldor momo*; 5) Afsonaviy pahlavonlar sifatida tasvirlanuvchi – *Odami Od, Olansag‘ar, Doroko‘z*; 6) Yovuz kuchlar haqidagi qarashlarni o‘zida ifoda etgan – *alvasti, yalmog‘iz*<sup>34</sup> va boshqalar.

Folklorshunos olim G‘.Akramov<sup>35</sup> o‘zbek eposida tasvirlangan mifologik personajlarning tabiatini tadqiq etgan bo‘lsa, professor B.Sarimsoqov<sup>36</sup> o‘zining maqolasida mifologik subyektning badiiy obrazga aylanish qonuniyatlarini keng tahlil qilgan. M.Jo‘rayev<sup>37</sup> o‘z ilmiy ishlarida *Yetti homiy, Hubbi, Gavomard, Childuxtaron, Odami Od, anqo* kabi mifologik obrazlarning genezisiga oid fikrlarni bayon etgan. T.Haydarov<sup>38</sup> mifologiya unsurlarini ochib berishga harakat qilgan. Miflarning ommalashishida, ularning avloddan avlodga yetib kelishida xalq og‘zaki ijodi san‘ati katta ahamiyat kasb etadi va ular, asosan, so‘z vositasida hikoya qilib berilgan, natijada bugungi kungacha yetib kelgan”<sup>39</sup>.

Keltirib o‘tilgan tadqiqotlar mifologiya xususida olib borilgan asosiy ilmiy ishlar hisoblanadi. Olimlar izlanishlari mobaynida turli xil tadqiqot tamoyillaridan foydalanishgan, natijada, mifologik birliklarni tushunish va ular haqida bilimga ega bo‘lish imkoni yaratilgan. Ammo, ta‘kidlashimiz joizki, mifologiyaning lisoniy jihatdan tahlili borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar soni sanoqli bo‘lib, ularning chog‘ishtirma tadqiqi xususida deyarli tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Ushbu bobning “Mif va asotirlardagi leksemalarning konseptuallashuvi” deb nomlangan faslida hozirgi kundagi dolzarb mavzu bo‘lmish, tilshunoslik doirasida bir qator konseptualizatsiya muammolari mavjud bo‘lib, konseptni o‘rganishning ilk namunalari tilshunos olimlar V.Gumboldt<sup>40</sup> va A.A.Potebnya<sup>41</sup>ga borib taqaladi. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning dissertatsion ishlariga tayangan holda bir qator tadqiqotchilar konsept va konseptuallashuv jarayonlari doirasida izlanishlar olib boranliklarini alohida ta‘kidlash joizdir.

Mifologik birliklarni aks ettiruvchi leksemalarni tushuntirish va guruhlarga bir majmua sifatida birlashtirish maqsadida, mif va asotirlarning fanda konseptuallashuv jarayoni asosida ingliz tilida quyidagi mavzuviy guruhlar taqdim etildi: 1) Mifologik xudolar – *Zevs, Osiris, Neptun, Yupiter, Geya, Dionis, Artimedia, Uran, Poseydon, Adonis*; 2) Mifologik qirollar – *qirol Artur, buyuk Alfred, Angul*; 3) Mifologik qahramonlar – *Robin Gud, Xengist va Xors*; 4) Mifologik hayvonlar – *Kelpi*; 5) Mifologik mavjudotlar – *Nessiye, Selki, Goblin*.

<sup>34</sup> O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent, 2000.

<sup>35</sup> Akramov G‘. Animatik mifologiya // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1977. – 3-son. – B. 48-53.;

<sup>36</sup> Sarimsoqov B. Epik janrlar diffuziyasi // O‘zbek folklorining epik janrlari. – Toshkent, 1981. – B. 93-168.

<sup>37</sup> Jo‘rayev M., Shomusarov Sh. O‘zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: Fan, 2000.

<sup>38</sup> Haydarov T. “Go‘ro‘g‘li” va mifologiya sinkretizmi. Nomzodlik ...diss. avtoreferati. – Toshkent, 1993.

<sup>39</sup> Babadjanova N. Mifologik dunyoqarashlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning inson ongiga ta‘siri // Academic research in educational sciences. – T., 2021. – B. 1501-1505.”

<sup>40</sup> Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное различие человечества // Избр. труды по языкознанию. – М., 1984. – С.37-298.

<sup>41</sup> Потебня А.А. Слово и миф. – М.: Правда, 1989. – 623 с.

Tadqiqotimiz mobaynida, ingliz tilida mifologik tushunchalar, asosan, beshta katta guruhga bo‘linishi orqali shakllanishi kuzatildi. Keltirib o‘tilgan barcha guruhlar umumiy holda mifologik konseptlarni tashkil etishi izohlanadi.

N.S.Popovanning asarlarida aytilganidek, “mifokonsept tabiat hodisalari va inson faoliyati o‘rtasidagi o‘xshashliklarni namoyon etish orqali dunyoni bilish qobiliyatini aks ettiruvchi metafora”<sup>42</sup> sifatida paydo bo‘ladi. Darhaqiqat, “metaforik so‘z asosiy ma’noga qaraganda, chuqurroq ma’noni aniqlash va tilning “she’riy” funksiyasini amalga oshirish uchun sabab bo‘la oladi”<sup>43</sup>. Tadqiqotda keltirilgan mifokonsept xususidagi bir qator fikrlarga ko‘ra, bizning fikrimizcha, mifokonsept – insonning mifologik birliklar – mifoleksemalar haqiqatiga tegishli fikrini o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Shu o‘rinda, aytishimiz mumkinki, mifokonsept – miflarga xos birliklarni bildiruvchi va inson ongida mifologik obrazlarni tasavvur qilish imkonini beruvchi tushunchadir. *Troyan oti, Jeyson va argonavtlar, Gerakl, Nuh kemasi, Mars, Enlil, Afrodita* barchasi mifokonseptga yorqin misol bo‘la oladi. Izlanishlar jarayonida mifologik elementlarni ta’riflovchi bir qator terminlar mavjudligi ta’kidlandi va shunga muvofiq, mifologema mifokonseptlarning zarur tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin, sababi mifologemalar matndan so‘zga qadar turli uzunliklarga ega bo‘la oladi, qolaversa, mifologemalar arxetiplar singari madaniyat tashuvchisi bo‘lib, ongda mavjud tasvirning taqdimoti orqali amalga oshiriladi.

Mifokonsept tushunchasini chuqur tahlil etgan holda turli funksiyalar bajarishi bilan konseptuallashuvini quyidagicha izohlashni ma’qul deb topdik: 1) Bilim (ya’ni mavjud mifologik elementlar haqida tushunchani anglatadi va inson ongida bilim sifatida shakllana oladi); 2) Strukturaviy (mifokonseptlar mif va unga doir birliklardan tuzilgan bo‘lib, olamning lisoniy manzarasining qurilishi birliklari hisoblanadi); 3) Kumulyativ (to‘plash, ya’ni mifologik vositalarni to‘plash va dunyo haqidagi ma’lumotlarni saqlash imkonini beradi); 4) Madaniy (mifologik birliklar har bir xalqqa xos bo‘lib, madaniyatni ham aks ettirish xususiyatiga egadir); 5) Tarixiy (mifologik birliklar ma’lum o‘rinlarda qadimgi odamlar o‘y-fikrlari, yashash tarzlari haqida ma’lumot beradi); 6) Xayoliy (ilm-fan rivojlanmagan, ko‘plab tabiat hodisalari va ilohiy masalalarga yechim topilmagan vaqtda hayolan shakllantirilgan); 7) Haqiqiy (mifologik elementlarni anglatuvchi turli xil birliklar, xususan, qahramonlar (*Gilgamesh, Qirol Artur* va boshqalar haqiqiy inson qiyofalarini aks ettirgan mifokonseptlar sifatida qaraladi).

Mifokonseptlarning konseptuallashuvi sifatida, albatta, quyidagilarni taqdim etish joizdir:

---

<sup>42</sup> Попова Н.С. Мифопоэтический концепт как вид когнитивной метафоры / Филология и культура. Материалы III Международной научной конференции. В 3-х ч. – Тамбов, 2001. – С. 36-37.

<sup>43</sup> Аскольдом Алексеем С.Л. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста, 1997. – С. 32.



### 2.3-rasm. Mifokonseptning xususiyatlariga ko'ra tasnifi.

Guvohi bo'lganimizdek, mifokonsept mifologik xususiyatlarni o'zida ifoda etgan birliklarni vazifasi va xususiyati jihatidan ham konsept sifatida shakllantirish mumkin. Shunga muvofiq, mifokonsept ikki olamning ruhiy to'qnashuvidan kelib chiqadigan, aslida mavjud va g'ayritabiiy bo'lgan xabar hamda fikr sifatida qaralishi mumkin, hamda haqiqat va noreallikni bir butunga birlashtiradi. Shuning uchun afsonaning asosi obyektiv ma'lumotlarning yetishmasligi bilan belgilanadi.

Qo'shimcha ravishda, tadqiqotdagi birliklarni konseptuallashtirish jarayonini asoslashda mifokonseptni turlarga ajratgan holda tadqiqot etish o'rinlidir deb hisoblaymiz: 1) Teogonik mifokonseptlar – xudolarning kelib chiqishi, ularning kuchlari va zaif tomonlarining sabablarini namoyish etib beradi. Bu turdagi konseptlar orqali biz mifologik xudolar haqida ongimizda tasavvur yarata olamiz; 2) Etilogik mifokonseptlar – ijtimoiy mavjudotlarning asosi, urush usullari va atrof-muhit bilan uyg'unlashgan mifologik birliklar; 3) Kosmogonik mifokonseptlar – asosan, dunyoning kelib chiqishiga doir mifologik elementlarni o'zida mujassamlashtiradi; 4) Esxatologik mifokonseptlar – dunyoning yo'q qilinishi va halokatli bashoratlarni xususida ma'lumot beruvchi asotirlardir; 5) Antropologik mifokonseptlar – insonlarning qanday paydo bo'lganligi va qahramonliklarini o'zida mujassam etuvchi miflardir.

Tadqiqotda konsept tushunchasining mohiyatini yanada kengroq ochib berish bilan bir qatorda, mif va asotirlarning konseptuallashtirish jarayonini tahlilga tortilish natijasida mifologik harakterlarni ifoda etuvchi birliklarni turli jihatdan konsept sifatida guruhlarga ajratish mumkinligi asoslandi. Aytish lozimki, miflar mavzu jihatidan keng ko'lamli bo'lganligi bois, konseptuallashtirish jarayonini ifoda etish uchun ularni yana guruhlarga ajratish mumkin, ushbu jarayonni amalga oshirishda biz konseptuallashtirishdan biroz farq qiluvchi semantik maydonlardan foydalanishni lozim topdik.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o'zbek tillari lingvomadaniyatshunosligida mifologik leksemalarning izomorfik va allomorfik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va o'zbek tillaridagi mif va asotirlarning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra lingvistik jihatdan izomorfik va allomorfik xususiyatlari asoslangan. Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida mif va asotirlarning semantik maydonini tahlil qilish asnosida chog'ishtirilayotgan tillardagi ushbu tur doirasiga mansub so'zlarning guruhlarga birikishi orqali hosil bo'ladigan o'xshash va farqli jihatlari ochib berilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, ingliz tilga xos mif va asotirlar asosini quyidagi uch tur tashkil etishi, xususan, qirollar (kings), mashhur shaxslar (famous people), hayvon va maxluqotlar (animals and creatures) nomli semantik maydon ostida birlashtirish mumkinligi aniqlandi (1-ilovaga qarang). Ushbu til doirasida semantik maydonning ikki va undan ortiq tildagi keng hajmli mifologik birliklarning mavjudligidan darakdir.

Yuqorida qayd etilganlar orasida birinchi semantik maydon ostida quyidagi leksik birliklar birlashtirildi va ushbu tur doirasiga kiruvchi barcha mif va asotir nomlari atoqli otlar turkumiga mansub bo'lib, ular struktur jihatdan bir, ikki va uch tarkibli ekanligi kuzatildi (2-ilovaga qarang).

Navbatdagi semantik maydon birliklarinig aksariyati yaxshi va yomon amallri tufayli nom qozongan xalq qahramonlari sirasiga kiradi hamda barcha nomlar shaxs nomlari bo'lganligi bois, atoqli otlar turkumini tashkil etishi kuzatildi (3- ilovaga qarang). Ushbu maydon ostida birlashuvchi mifologik xarakterlar, o'z navbatida, yana ijobiy va salbiy xarakterga ega obrazlarga ajratildi: a) Ijobiy mifologik xarakterlar: *Robin Hood, Beowulf, Horsa, Lady Godiva, Wayland the Smith, Havelok the Dane, Sir Bevis of Hampton*; b) Salbiy mifologik xarakterlar: *Waltheof of Melrose, Wandering Jew, Lob*.

So'nggi ma'no jihatdan birlashadigan semantik maydonni ham ikki turga, ya'ni hayvonlar va maxluqotlar guruhiga ajratish, ularning aynan qanday o'ziga xos ekanligi va asl ma'nosini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ingliz madaniyatida mavjud maxluqotlar nomi ostida birlashuvchi miflarni, alohida guruh sifatida ajratib o'rganish, ularning ma'nolarini yaqolroq ochib berishga xizmat qiladi (4-ilovaga qarang).

Ta'kidlash lozimki, ingliz xalqi uzoq tarix va qadriyatlariga ega bo'lganligi bois, ushbu til doirasida azaldan paydo bo'lgan, xalq to'qimalari va haqiqatlariga asoslangan bir qator mif va afsonalari mavjuddir.

Shu o'rinda, yuqorida keltirilgan semantik maydon tahlillari asosida mif va afsonalardagi leksik birliklarning konseptual tasnifini ham ishlab chiqish joiz deb qaraldi hamda bir konseptni aks ettiruvchi mifoleksimalarni ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu borada, ularning quyidagicha konseptual tasnifi ishlab chiqildi: 1) Vatan – *Alfred the Great, King Arthur, Horsa*; 2) Jasorat – *Robin Hood, Brutus of Troy, The tale of Gamelyn, Sir Bevis of Hampton, Guy of Warwick, Lady Godiva*; 3) Go'zallik – *Lady of the Lake*; 4) Yovuzlik – *Orges, Goblin, Troll*. Ushbu tasnifga muvofiq, ingliz mif va afsonalaridagi bir konseptni aks ettiruvchi leksik birliklarning vatan, jasorat, go'zallik va yovuzlik konseptlari ostida birlashishi kuzatildi. Mazkur birliklar, nafaqat mifologik leksemalarni aks ettiribgina qolmay, balki til va madaniyatga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Miflarning yuzaga kelishi, rivojlanish bosqichlari va badiiy adabiyotning shakllanishidagi ahamiyati kabi masalalarni o'rganish, nafaqat jahon tilshunosligining, balki o'zbek tilshunosligining ham muhim muammolaridan biri sanaladi. Miflarning yozma adabiyotga munosabati, xususan, asotiriy syujetlar va obrazlardan foydalanishda ijodkorning mahorati masalasi o'zbek olimlari

tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Bu o'rinda, N.Mallayev, M.Saidov, G.Akramov, M.Jo'rayev, T.Xo'jayev kabi olimlar<sup>44</sup>ning tadqiqotlarini tilga olib o'tish joizdir.

Xalq og'zaki ijodida an'anaviy tarzda qo'llaniluvchi ajdar, dev, pari, *Semurg'*, *Jo'mard*, *Aranja bobo*, *Axriman*, *aranglar*, *Zahhok*, *Siyovush*, *Ashshadarozi*, *Sust xotin*, *Haydar* kabi ko'plab asotiriy obrazlarning tarixiy asoslari zardushtiylik mifologiyasiga borib taqaladi. "O'zbek miflari ularning bir qismi bo'lib, bizgacha yetib kelishida zardushtiylik (otashparastlik) dinining muqaddas kitobi "Avesto" muhim ahamiyatga ega<sup>45</sup>.

O'zbek tili doirasida mif va asotirga doir leksemalar keng hajmli bo'lganligi bois, biz ularni quyidagicha semantik maydonlarga ajratgan holda tahlil qilishni ma'qul deb topdik (1-ilovaga qarang). Mazkur maydonlarni ajratishda, asosan, tadqiqotchi olim M.Jo'rayevning miflar tasnifiga tayanildi.

O'zbek mifologiyasida uchraydigan asosiy mif va asotirlarning birinchi semantik maydoni "Antropogenik" – g'ayrioddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy personajlar haqidagi miflarni tashkil etishi kuzatildi (6-ilovaga qarang). Keltirilgan barcha qahramonlar, afsonaviy pahlavonlar o'zbek xalqi orasida mardlik, jasurlik timsollari sifatida talqin etiladi. Shu bois, farzandini jismoniy yetuk va baquvvat bo'lishini istovchilar tomonidan "Rustam", "Alpomish" deb nom berilishi ularning lingvomadaniy xususiyatlarini namoyon etuvchi jihati ekanligidan dalolat beradi.

Navbatdagi ma'no jihatdan birlashtirilgan semantik maydon "Dualistik" – ezgulik va yovuzlik kuchlari o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan miflarni qamrab olgan (7-ilovaga qarang). Dualistik miflar, asosan, mifologik obrazlarni ifoda etgani bois, ular yana ikki guruhga "Ijobiy xarakterli" obrazlar (*Axuramazda*, *Asha*, *pari*) va "Salbiy xarakterli" obrazlar (*Ahriman*, *Surxayil*, *yalmog'iz*, *jodugar*, *shum kampir*, *maston*, *ajina*, *alvasti*, *dev*) kabilarga ajratilgan holda o'rganildi. Ma'lumki, o'zbek xalqi milliy-madaniy qadriyatlarida ezgulik va yovuzlik o'rtasida doimo kurash mavjudligi bois, xalq orasida qo'llaniluvchi mifologik obrazlarda ham, yaxshilik va yomonlik tarafdorlari (*Ahuramazda-Ahriman singari*) zidlanishi namoyon bo'ladi. Bu esa, albatta, ushbu birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini yanada yaqqol aks ettirishga imkon yaratadi.

O'zbek tilida tabiat hodisalari haqidagi miflarning semantik maydoni ostida birlashuvchi mifologik obrazlar ko'p sonli bo'lganligi bois, ikki guruhga ajratishni ma'qul deb topdik va "Suv haqidagi miflar" hamda "Tabiat hodisalari haqidagi miflar" kabi guruhlarga ajratildi (8-ilovaga qarang).

Yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi tahlillardan farqli o'laroq, o'zbek tili doirasidagi tasnif quyidagicha ishlab chiqildi: 1) Vatan – *Go'r o'g'li*; 2) Jasorat – *Alpomish*, *Kuntug'mish*, *Rustamxon*, *Kenja botir*; 3) Go'zallik – *Pari*, *Oybarchin*,

<sup>44</sup> Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent, 1974. – 90-137 b.; Saidov M. Turkiy xalqlar mifologiyasining yozma adabiyotga ta'siri masalasiga doir // Adabiyot ko'zgusi, 1996. – B. 141-145.; Akramov G. Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1996. –B. 60-66.; Jo'rayev M. Miflarning yozma adabiyotga munosabati // O'zbek tili va adabiyoti. – T., 1980. – B.39, Xo'jayev T.R. Mifik obraz va yozma adabiyot // Adabiy meros. – T., 1991. – B. 63-68.

<sup>45</sup> Mirzayev T., Jurayev M. "Avesto" mifologiyasi va o'zbek xalq ijodi // O'zbekistan tarixi. – № 3. – B. 30-37.

*Semurg*; 4) Yovuzlik – *Surxayil kampir, yalmog'iz, shum kampir, Maston, ajina, alvasti, dev, Ubba*; 5) Yaxshilik – *Xubbi, Asha, Jamshid*; 6) Baxt – *Xizr, Humo*. Albatta, ushbu tasnifga muvofiq, o'zbek mif va asotirlaridagi bir konseptni aks ettiruvchi vatan, jasorat, go'zallik, yovuzlik, yaxshilik va baxt kabi konseptlar ostida birlashtirish jaroyonida ular, nafaqat mifologik birlik sifatida, balki til va madaniyatga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'zida mujassamlashtirganligi kuzatildi. Shu o'rinda, o'zbek mif va asotirlaridagi leksik birliklarning ingliz tilida mavjudlaridan farqli jihati namoyon bo'lganligi, ya'ni qo'shimcha ravishda, yaxshilik va baxt konseptlari ostida birlashganligi aniqlandi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi mif va asotirlarga xos leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari, aksariyat hollarda badiiy, nasriy, nazmiy asarlarda yaqqol namoyon bo'ladi, chunki milliylik ruhida yozilgan har qanday asarda millatning urf-odatlarini, an'analari tasvirlanib, milliy-madaniy qadriyatlarini ifoda etadi. Mif va asotirlarga xos leksemalarni alohida xususiyatlarini aniqlashda, ingliz va o'zbek yozuvchilarining asarlaridan olingan misollar tahliliga etibor qaratamiz:

*The only person for whom the house was in any way special was Arthur Dent, and that was only because it happened to be the one he lived in (Douglas Adams, The Hitchhiker's Guide to the Galaxy, 2001).*

*"Saidov Rustamxon O'ktamovich "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati moliya bo'yicha direktori etib tayinlandi" (Xalq so'zi, 2020).*

Chog'ishtirilayotgan misollarda tahlilga tortilgan mif va asotirlarga oid leksik birliklar, hozirda ism ma'nosida qo'llanilayotganligi aniqlandi. "Artur" va "Alpomish" mifologik birliklari o'zining asl ma'nosidan chetga chiqib, ingliz va o'zbek tillarida atoqli ot (ism ma'nosi) sifatida qo'llanilishi kuzatildi.

*"You're a horrible little goblin, but horrible little goblins need friends too". – Questionable Content.*

Misolda ajratib ko'rsatilgan faqat ingliz madaniyatiga xos "goblin" leksik birligi, o'zining asl ma'nosini yo'qotib, ushbu gapda mifologik obrazning tashqi ko'rinishiga oid ma'noni ifoda etib, hozirda o'ta hunuk bo'lgan insonlarga nisbatan qo'llanilayotganligini ko'rishimiz mumkin, albatta.

*"Yuzboshini nima qilding, ajina? – dedi Nishonbek Muharramga" (Oybek, Tanlangan asarlar).*

Berilgan misol orqali o'zbek madaniyatiga xos yuqoridagi birlik, asosan, ayol va qizlarga nisbatan qo'llanilishini namoyon etadi. Mazkur "*ajina*" mifologik birligi ham asliyat ma'nosidan tashqari o'zbek tilshunosligida, ushbu maxluqqa nisbatlash, u bilan ataluvchi shaxs (asosan, xotin qizlarga) ko'rinishini ifodalovchi vosita sifatida qo'llanilishi kuzatildi.

*"In after years he was called the "Sir Havelock" of the American Army" (Augustus Meyers, Ten years in the ranks U.S.Army).*

Ingliz lingvomadaniyatshunosligida "*Havelock*" mifologik obrazi avloddan avlodga qahramonlik, kuch qudrat boy bo'lsa-da, hamisha kambag'al insonlar orasida hayot kechiradigan obraz sifatida tasvirlanib keladi. Tahlilga tortilgan ushbu misol esa "*Havelok*" mifologik obraz maqomidan chiqib, zamonaviy

tilshunoslikda uning sifatlarini tasvirlaydigan leksik birlikka aylanganligidan dalolat beradi.

*“Har yoqqa alanglab, boshpana ko‘zlashga tushdi. Dashtda bunday boshpana anqoni urug‘i”* (H.Nazir, Mayoq sari).

O‘zbek xalqining yashash hududlari, asosan, qurg‘oqchilikka moyil bo‘lganligi bois, usbu mifologik birlik ishtirok etgan misolda, issiq kunlarda dasht hududida biror-bir boshpana izlab topish juda mushkul masala ekanligi *“anqoni urug‘i”* kabi ma‘noda ifodalanib kelmoqda.

*“There were many celebrations to remember Lady Godiva’s courage”* (S.A.Matveyev, The Best English legends).

Mazkur misolda qo‘llanilgan leksik birlik, ayol obrazi va uning mardligini ifodalovchi mifologik qahramon *“Lady Godiva”* tomonidan bajarilgan amalni aks ettiruvchi ma‘no kasb etganligi kuzatildi. *Lady Godiva* turmush o‘rtog‘ining soliqqa tortish siyosatiga keskin noroziligini, Angliyaning Koventri ko‘chalarida yalang‘och holda kezishi, uning qahramonlarcha kuchli jasorat sohibasi ekanligidan dalolat beradi. Shu bois, zamonaviy tilshunoslikda qizlar yoki ayollar uchun jasurlik va mardlikni ifodalovchi leksik birlik sifatida qo‘llanilishi tahlilimiz davomida aniqlandi.

*“Barchinoy uning yuziga qaramay, qo‘lini siltab tashladi. – Barchinoy, bilasan, shoir xalqining asabi yomon... Barchinoy indamay, yana eshikka qo‘l cho‘zdi”* (Tog‘ay Murod, Er xotin).

O‘zbek mifologiyasiga tegishli bo‘lgan *“Barchinoy”* obrazi, bugungi kunda ism ma‘nosidan tashqari, ayollar va qizlar o‘rtasida jismoniy hamda ruhiy kamollikni shakllantirish maqsadida o‘tkaziladigan musobaqalarning ramziy nomlanishida qo‘llaniyatganligi kuzatildi.

Chog‘ishtirayotgan tillardagi mif va asotirlarga oid leksik birliklar bugungi zamonaviy tilshunoslikda, ism, mifologik obrazning tashqi ko‘rinishi, uning xarakteri yoki sifati hamda tarixda iz qoldirgan amallariga ko‘ra turli ma‘nolarda qo‘llanilishi ingliz va o‘zbek tillariga xosligi dalillandi. Bu borada, har bir tilning madaniyati va tarixidan kelib chiqqan holda ifoda etilishi, xususan, ingliz tilida ayollar mardligi *“Godiva”* xonimning hatto, nomusidan kechib, o‘zining noroziligini qat‘iy amallar orqali ko‘rsatganligi bilan belgilansa, o‘zbek madaniyatida *“Barchinoy”*ning bir so‘zligi, oriyati va nomusini saqlab qolganligi mardlik timsoli sifatida farqli jihatlarini namoyon etadi. Bundan tashqari, ingliz va o‘zbek tillaridagi mifologik birliklarning tahlili natijalariga ko‘ra bir qancha o‘xshash va farqli jihatlar ham aniqlandi. O‘xshash jihatlar quyidagilarda namoyon bo‘ladi: 1) leksik birliklar, asosan, ot so‘z turkumi: atoqli va turdosh otlarga mansubdir (ingliz va o‘zbek); 2) bir va ikki komponentli leksik birliklarning mavjudligi; 3) ism ma‘nosida qo‘llanilishi; 4) tashqi ko‘rinish; 5) xarakteri yoki insoniy jihati; 6) tarixda iz qoldirgan amali; 7) vatan, jasorat, go‘zallik, yovuzlik konseptlarini ifoda etuvchi leksik birliklar (har ikkala tilda); 8) metaforik vosita sifatida qo‘llanilishi (har ikkala tilda mavjud). Farqli jihatlar: 1) kichraytirish va erkalash ma‘nolarini aks ettiruvchi qo‘shimchalar mavjudligi (faqat o‘zbek tilida); 2) sifat so‘z turkumiga mansub leksik birliklar (faqat o‘zbek tilida); 3) uch

komponentli leksik birliklarning mavjudligi (ingliz tilida); 4) har bir til vakillarining madaniyatida mavjud urf-odatlarini, ana'nalariga bog'liq holda farqlanadi; 5) har bir millatning milliy madaniy urf-odatidan kelib chiqqan holda turli ma'nolarni ifodalashi; 6) baxt va yaxshilik konseptlarini ifoda etuvchi leksik birliklar mavjudligi (o'zbek tilida).

## XULOSA

1. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida til – madaniyat, qadriyat, an'ana va urf-odatlarini ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib qolishiga xizmat qiluvchi, ulkan ahamiyatga molik vosita sanaladi. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatshunosligida mifologik obraz, uning lisoniy muammolari bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Har biri xalqning uzoq asrlik tarixiy kechmishi, o'ziga xos milliy an'analari, e'tiqodiy va axloqiy qarashlarida ifoda topganligi bilan e'tiborga molikdir.

2. Mifologiya masalalarini til xususiyati nuqtai nazaridan o'rganish esa leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish orqali bevosita shu tilning madaniyatini ham o'rganish, uning asosiy ma'nosini yanada yaqqol ochib berishga xizmat qiladi.

3. Ingliz tilida mif va afsonalar alohida-alohida aniq ta'rifga asoslangan holda ajratilib o'rganilishi, o'zbek tilida esa mif, asotir, afsonalar bir-biriga yaqin ma'nolarni ifodalovchi birliklar sifatida talqin etiladi. Ilmiy adabiyotlarda mif atamasi bilan bir sinonimik qatorda: mifema, mifologizm, mifologik xarakter kabi birliklar ham qo'llanilmoqda. Shu sababli, tilshunoslik prizmasida mifologik leksemalar muammolari va aniq konseptdan foydalanish talabi vujudga kelganligi tasdiqlandi.

4. Mifologik birliklarning asl ma'nosini tahlil qilish orqali ularning lingvomadaniy xususiyatlari, qanday mifologik konseptga aloqadorligi, ichki shakli, mifoleksemalarning mifologik so'zlar paradigmasidagi o'rni, leksik birliklarning xalqlar madaniyatida qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlash kabi masalalar muhimdir.

5. Ingliz va o'zbek tillarida muayyan tarixiy va badiiy-estetik asosga ega bo'lgan mifologizmlar, asosan, mifologik obrazlarning miflashmasidan vujudga kelgan. Ular xalqning orzu-maqсадlarini amalga oshirishda, an'anaviy epik syujetlar tizimini belgilashda o'ziga xos strukturaviy, funksional va lingvomadaniy ahamiyat kasb etadi.

6. Mifologik birliklarning strukturaviy elementlari bo'lib xizmat qiladigan termin hisoblanuvchi mifokonsept shaklida afsonaning konseptualizatsiyasi va uning aqliy g'oyasi haqida tahlil yuritish imkoni paydo bo'ladi. Mifologik konsept har qanday boshqa konseptual birliklarga o'xshash aqliy tasavvur bo'lsa-da, u mifologik tabiat tomonidan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarni namoyon etadi.

7. O'zbek mif va asotirlaridagi muayyan bir konseptni aks ettiruvchi leksik birliklarning vatan, jasorat, go'zallik, yovuzlik, yaxshilik va baxt konseptlari ostida birlashadi, ingliz tilida esa o'zbek tilidan farqli o'laroq vatan, jasorat, go'zallik, yovuzlik kabilari ostida namoyon bo'ladi.

8. Ingliz tilida mif va asotirlar “kings / qirollar”, “famous people / mashhur shaxslar” va “animals and creatures / hayvon va mavjudotlar”, o‘zbek tilida esa, antropogenik (g‘ayritabiiy xususiyatga ega shaxslar), dualistik (ezgulik va yozuvlik kurashini ifoda etuvchi mifologik qarashlar) hamda suv va tabiat hodisalari haqidagi miflar nomli semantik maydonlarga birlashadi.

9. Chog‘ishtirilayotgan tillarning har ikkalasida mif va asotirlar, mifologik obrazlar va ularni aks ettiradigan leksik birliklar xalqning turmush tarzi, e‘tiqodlari, iqlimi singari omillarga ko‘ra vujudga kelgan.

10. Tahlil natijalariga ko‘ra ingliz va o‘zbek tillardagi mifologik leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari, shu tildagi mif va asotirlarga oid qahramonlar, dualistik miflar, hayvonlar va mavjudotlarning ijobiy yoki salbiy xarakteri, tashqi ko‘rinishi, harakatlarini ifodalab kelishi har ikkala tilning o‘xshash jihatlari hisoblansa, ularda qo‘llaniladigan mifologik leksik birliklarning nomi faqatgina shu xalq va millatlarning tilida aks ettishi ularning farqli xususiyatidir.

11. Ingliz tiliga xos uch komponentli va “kelpies”, “selkies” kabi ko‘plik formasidagi mifologik birliklar, o‘zbek tilida esa qo‘shib yoziladigan ikki tarkibli hamda kichraytirish, erkalash ma‘nolarini ifoda etuvchi qo‘shimchalarga ega mifologik leksemalarning mavjudligi ularning farqlovchi belgisi hisoblanadi.

12. Ingliz va o‘zbek tillaridagi mif va asotirlardagi leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarining tahlili natijasida, ushbu birliklar hozirda leksik birlik sifatida maqol, ibora, idiomalar tarkibida qo‘llanib, nutqqa ko‘chgan, shuningdek, asosan, har ikki tilda ham ular metaforik vosita sifatida qo‘llaniladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019. Fil.01.10  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ  
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**ПУЛАТОВА САРВИНОЗ БОТИРОВНА**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ  
ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, СВЯЗАННЫХ С МИФАМИ И  
ЛЕГЕНДАМИ**  
(на примерах материалов в английском и узбекском языках)

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное  
языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером №.B2023.2.PhD/Fil.1835.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-сайте Научного Совета ([www.nuu.md.uz](http://www.nuu.md.uz)) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» [www.ziyo.net.uz](http://www.ziyo.net.uz).

<b>Научный руководитель:</b>	<b>Юсупова Шоира Батыровна</b> кандидат филологических наук, доцент
<b>Официальные оппоненты:</b>	<b>Галиева Маргарита Рафаеловна</b> доктор филологических наук, доцент
	<b>Тухтаходжаева Наргиза Акмаловна</b> доктор философии (PhD) по филологическим наукам
<b>Ведущая организация:</b>	<b>Самаркандский Государственный институт иностранных языков</b>

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023г. в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Фараби, дом 400. Тел. (+99871) 246–08–62; (+99871) 227–10–59; Факс: (+99871) 246–65–24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). Национальный университет Узбекистана, Факультет зарубежной филологии (3 этаж, 11-аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за №\_\_\_). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, д. 400. Тел. (+99871) 246–08–62.

Автореферат диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года.  
(протокол реестра рассылки за №\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2023 года).

**А.Г.Шереметьева**  
Председатель научного совета по  
присуждению ученых степеней,  
докт.филол.наук, профессор

**Н.Э.Абдуллаева**  
Ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
философии по филол. н. PhD., доцент

**И.А.Сиддикова**  
Председатель научного семинара при  
научном совете по присуждению ученых  
степеней, докт.филол.наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** Мировоззрение, уникальный жизненный опыт, история, традиции, обычаи и обряды каждой нации в совокупности с национально-культурными особенностями проявляются посредством общих и специфических языковых единиц в мифах и легендах, сопоставительное исследование которых на сегодняшний день является весьма значимым в мировом языкознании. В связи с этим приобретает актуальность изучение неисследованных аспектов лингвокультурологии как одного из современных направлений лингвистики, рассмотрение языка и культуры как единого целого, изучение различных языков и культур разных народов, их комплексный анализ, а также выявление эффективных методов лингвистических исследований.

Помимо изучения языка как системы, в мировом языкознании одной из основных задач лингвокультурологии, исходя из требований антропоцентрического подхода, является рассмотрение таких вопросов, как отражение в языке запечатленных в сознании человека культурных символов, изучение картины мира и нескольких ее видов (лингвистическая, национальная, этническая) с теоретической и практической точки зрения. Содержание большинства исследований в этом направлении в основном ориентировано на новые подходы и реализуется только в рамках одного языка. Однако национально-культурные символы мифов и легенд, которые принято считать комплексом ранних представлений древнего человечества о мире, недостаточно изучены в сравнительном аспекте. Это требует изучения лексических единиц, связанных с мифами и легендами и отраженных во фразеологии, метафорах, символах, фольклорных и религиозных дискурсах, поэтических и прозаических художественных текстах, не только со структурно-семантической точки зрения, но и в сопоставительном аспекте их лингвокультурных особенностей.

В нашей стране за последние годы в узбекской лингвистике также достигнуты значимые результаты в исследованиях, направленных на определение структурных, семантических и национально-культурных особенностей лексических единиц, связанных с мифами и легендами и имеющих символическое, образное и метафорическое значение, которые проявляются в общепринятой форме в сознании человека. В этом контексте изучение мифов, легенд, сказок, обычаев, традиций и символов, связанных с культурой, укрепляет их роль в языке как элемента материальной и духовной жизни. Определение в Законе Республики Узбекистан вопросов «...обеспечения научного решения проблем, связанных с повышением качества систем науки и образования»<sup>46</sup>, в свою очередь, создает потребность в обогащении фундаментальных и инновационных исследований в области

---

<sup>46</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risi”dagi Qonuni, 2019 yil, 29 oktyabrda O‘RQ-576-son – <https://lex.uz/docs/-4571490>

сопоставительной лингвистики для определения лингвокультурных особенностей путём выявления универсальных и специфических языковых проявлений любой мифологической единицы, относящейся к всеобъемлющей и многозначной лексике мифа.

Данное исследование в определенной степени служит реализации задач, указанных в нижеперечисленных постановлениях Президента и других нормативно-правовых документах, касающихся данной сферы. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» – № ПП-2909 от 20 апреля 2017 года, «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах» № ПП-3775 от 5 июня 2018 года, «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан», – № ПП-5117 от 19 мая 2021 года, Указ Президента «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» № УП-5847 от 8 октября 2019 года.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование было проведено в соответствии с приоритетным направлением развития республики в области науки и технологического прогресса, а именно в рамках первого направления «Развитие информационного общества и социально-экономического, демократического, юридического, экономического, культурного, духовно-нравственного развития, развитие инновационной экономики».

**Степень изученности проблемы.** Начиная с 90-х годов XX века, учёные-лингвисты стали заниматься исследованиями в области лингвокультурологии, совмещающими язык и культуру, проблемы которых стали рассматриваться в научных исследованиях этого направления в русле антропоцентрического подхода. Важные сведения о взаимосвязи языка и культуры были впервые приведены в научных работах известных ученых, таких как В. фон Гумбольдт<sup>47</sup>, а позднее – Э.Сепир, Б.Уорф<sup>48</sup>; их теоретические подходы обеспечили дальнейший прогресс в развитии данного направления. В настоящее время в область многочисленных лингвокультурологических исследований внесли свой неопределимый вклад такие российские лингвисты, как Н.Ф.Алефиренко, А.Вежбицкая, С.Г.Воркачев, В.В.Воробьев, В.И.Карасик, О.А.Корнилов, Ю.С.Кубрякова,

---

<sup>47</sup> Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1984. – С. 80.

<sup>48</sup> Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Издательская группа «Прогресс», 1993. – С. 112; Уорф Б.Л. Отношение норм поведения и мышления к языку // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1960. Вып. №1. – С. 174.

В.А.Маслова, Е.М.Верещагин, В.Н.Телия, В.В.Красных, Е.И.Кукушкина<sup>49</sup> и другие.

